



ANALYSIS OF WATER LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CURRENT LEGAL BASIS AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT

Sakinabonu Mingboyeva

PhD Candidate at Tashkent State University of Law

mingboyevasakinabonu0202@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: water legislation, Resolutions of the Cabinet of Ministers, water resources management, regulatory legal act.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article analyzes the water legislation of the Republic of Uzbekistan, taking into account current legal norms and directions for improvement. In addition, an analysis of regulatory legal acts regulating water relations was carried out, and special attention was paid to the gaps in current legislation. In addition, the issues of the formation and development of the country's water legislation were studied along with the views of legal scholars, and the author's own approaches were presented.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUV QONUNCHILIGI TAHLILI: AMALDAGI HUQUQIY ASOSLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Sakinabonu Mingboyeva

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

mingboyevasakinabonu0202@gmail.com

Tashkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: suv qonunchiligi, VMQ, suv resurslarini boshqarish, normativ-huquqiy hujjat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligi amaldagi huquqiy normalar va takomillashtirish yo'nalishlari hisobga olingan holda tahlil qilingan. Bundan tashqari suv munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili amalga oshirilib, hozirda mavjud qonunchilikdagi bo'shlqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Qolaversa, mamlakatimiz suv qonunchiligi shakllanishi va rivojlanishi masalalari huquqshunos olimlarning qarashlari bilan birga o'rganilib,

**АНАЛИЗ ВОДНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:
ДЕЙСТВУЮЩИЕ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Сакинабону Мингбоева

Аспирант Ташкентского государственного юридического университета

mingboevasakinabonu0202@gmail.com


Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	водное законодательство, ПКМ, управление водными ресурсами, нормативно-правовой акт.	Аннотация:	В данной статье анализируется водное законодательство Республики Узбекистан с учетом действующих правовых норм и направлений совершенствования. Кроме того, проведен анализ нормативно-правовых актов, регулирующих водные отношения, особое внимание удалено пробелам в действующем законодательстве. Кроме того, вопросы формирования и развития водного законодательства нашей страны изучены наряду с взглядами ученых-правоведов, а также представлены собственные подходы автора.
------------------------	--	-------------------	---

Kirish. Suv resurslarining strategik ahamiyati mamlakatimiz siyosatida yuqori ekanligi uning inson, jamiyat va davlat hayotidagi o‘rn bilan bevosita bog‘liqdir. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakat sifatida dunyo okeanlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatidan mahrum. Bundan tashqari mamkakat hududida Amudaryo va Sirdaryo kabi transchegaraviy daryolarning aholi umumiyligi iste’molida tutgan o‘rn yuqori. Jumladan, ushbu daryolar umumiyligi aholi iste’molidagi suv ta’minotida 80% dan yuqori darajani tashkil etadi. Bundan tashqari ushbu transchegaraviy daryolarning yetarli miqdorda Orol dengiziga quyilmasligi oqibatida uning hududi cho‘l zonaga aylanib bormoqda[1]. Natijada Orolbo‘yi hududidagi aholi o‘rtasida buyrak va jigar kasalliklari, yurakning tug‘ma nuqsoni bilan tug‘ilayotgan bolalar soni yildan yilga oshib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan olishimiz mumkinki, mamlakatimiz boshqaruvida suv resurslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Sohani tartibga solishga qaratilgan 400 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular orasida ayrim qonun hujjatlari dastlab qabul qilingan holati takomillashtirilib, zamon talabiga hamnafas holatda yangi tahrirda qabul qilindi[2]. Shunga qaramasdan mamlakatimizda suv qonunchiligi iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi, qishloq xo‘jaligi

ehtiyojlaring ortishi kabi muammolar natijasida takomillashtirilishi dolzARB ahamiyat kasb etib bormoqda.



Ushbu tasvirda Orol dengizining 2000, 2003, 2006, 2009, 2011, 2012-yillardagi suv sathining kamayib borishi aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligini tahlil qilish orqali sohadagi mavjud muammolar hamda bo'shliqlarni aniqlash hamda tizimlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy qilish orqali suv resurslaridan oqilona foydalanilish, suv tanqisligining kelgusidagi zararli oqibatlarining oldini oluvchi omil bo'lishi mumkin. Shu sababli mazkur maqolada mamlakatimiz suv qonunchiligi tizimli tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi ko'zda tutildi.

Metodologiya

O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligi tahlilini amalga oshirishda qiyoslash, tizimli tahlil qilish, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanish samarali deb hisoblandi hamda sohadagi muammolarni aniqlash maqsadida muammoli yondashuv uslublaridan foydalanildi. Qolaversa, milliy qonunchiligimiz ilg'or xorijiy davlatlarning qonunchiliklari bilan qiyoslanib, takomillashtirish uchun yechimlar taqdim etish masalasi ko'rib chiqildi.

Natijalar

Suv resurslarini boshqarish, aholining toza ichimlik suvidan foydalanish huquqini ta'minlash, chuchuk suv manbalaridan oqilona foydalanish hamda xavfsizlikka doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan 400 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular tahlil qilinadigan bo'lsa, quyidagi raqamlarga duch kelinadi: 7 ta qonun, 4 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun, 350 ta qaror, 23 ta farmon, 2 ta farmoyish, 3 ta namunaviy nizom, 10 ta buyruq, 2 ta yo'riqnomalar va 1 qoidalar mavjud[3]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar orasida "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi qonunlar alohida ahamiyat kasb etadi. Aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini

olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek, suvgan doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganidan beri 32 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Shu davr mobaynida mazkur qonunga 25 martadan ortiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Oxirgi marta ushbu qonunning 27, 30, 53, 102, 117-moddalariga tegishli qo‘shimchalar kiritilib, zamon talablariga moslashtirildi[4]. Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, ichimlik suvini qadoqlangan tarzda, tovar belgisidan va xizmat ko‘rsatish belgisidan foydalangan holda ishlab chiqarishga hamda realizatsiya qilishga nisbatan ta‘biq etilmaydigan “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi qonunni so‘nggi yillarda suv munosabatlari sohasida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi, deb hisoblash mumkin[5]. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar mamlakatimizda suv sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda bevosita va bilvosita ishtirot etadi.

Qonunlarning ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilinadigan Vazirlar Mahkamasining qarorlari suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda alohida ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining “Ayrim hududlarda yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” VMQ-855, “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” VMQ-645, “O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste’moli tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” VMQ-82, “Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste’mol qilishga ruxsatnomaga berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” VMQ-184 kabi qarorlari muhim hisoblanadi. Ular aholi turmush sharoitini yaxshilash va toza ichimlik suvi bilan ta’minlashdagi muammolarning oldini olish maqsadida vakolatli davlat organlari tomonidan ijro etilib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning o‘rtasida joylashganligi, uning asosiy suv ta’minoti hisoblanadigan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining boshlanish nuqtasi qo‘sni Tojikiston hamda Qirg‘iziston davlatlari hududiga to‘g‘ri kelishi mamlakatimiz suv qonunchiligidagi mintaqaviy, ikki va ko‘p tomonlama shartnomalarga katta ahamiyat qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi. 1991-yildan beri O‘zbekiston Respublikasi tomonidan suv munosabatlariga doir Markaziy Osiyo davlatlari bilan 10 dan ortiq kelishuvlar va bitimlar imzolandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

o‘rtasida Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to‘g‘risidagi Bitim(Bishkek, 2022-yil 3-noyabr). Mazkur bitim mamlakatimiz tomonidan qonun orqali milliy qonunchiligimizga tatbiq qilinib, ijrosi ta’minlanib kelinmoqda.

Bundan tashqari mamlakatimiz tomonidan suv munosabatlarini tartibga soluvchi qator xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilingan bo‘lib, ular milliy qonunchiligidan muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, 1992-yildagi Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo‘yicha Konvensiya[6], 1971-yildagi Suvli botqoq yerlar to‘g‘risidagi Ramsar konvensiyasiyalaridir[7].

Muhokama

Huquqshunos olim H.Hayitov tomonidan o‘zining doktorlik dissertatsiyasida mamlakatimizning suv qonunchiligi keng ko‘lamli tarzda tahlil qilingan. Uning fikriga ko‘ra, mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishga oid qoidalarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi shartli ravishda uchga ajratiladi: birinchi bosqich 1991-2000-yillar, ikkinchi bosqich 2001-2009-yillar, uchinchi bosqich 2010-yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr[8]. Ushbu huquqshunos olimning qarashlaridan farqli o‘laroq, mamlakatimizda suv qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishini 3 davrga bo‘lgan holatda quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1-bosqich: 1991-2000-yillar. Mazkur davrda suv huquqining rivoji uchun dastlabki huquqiy asoslar yaratildi. Suv resurslaridan foydalanish, iste'molchilar va suv munosabatlarining boshqa ishtirokchilari huquq va majburiyatlari, vakolatli davlat organlari hamda korxona, tashkilot, muassasalarning o'zaro munosabatlari tartibga solindi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (30.04.1998-yil), "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (09.12.1992-yil), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi (06.05.1993-yil), "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi (20.08.1999-yil), "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi (20.08.1999-yil), "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi (25.05.2000-yil), "Radiatsiyaviy xavfsizlik

to“g‘risida”gi (31.08.2000-yil) qonunlari qabul qilinganligi mazkur davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

2-bosqich: 2000-2016-yillarni o‘z ichiga oladigan ikkinchi bosqichni mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga katta e’tibor qaratilganligi bilan izohlash mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi (05.04.2002-yil), “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi (13.12.2002-yil), “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (03.12.2004 yil) qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

3-bosqich: 2016-yildan hozirgi kunga qadar. Ushbu davrdan boshlab, suv resurslaridan oqilona foydalanish, uning kelajak avlod uchun saqlanishi masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Mamlakatimiz qonunchilik sohasida suv munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar zamon talablariga moslashtirildi, ayrimlari yangi tahrirda qabul qilindi. Jumladan, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunga 2016-yildan keyingi davrda 14 marta o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. 2022-yilda esa “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilindi.

Suv munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar 400 dan ortiq ekanligini tahlil qilish qilish davomida aniqlandiki, ayrim hujjatlardagi huquqiy normalar takrorlanadi, ayrimlari esa bir-biriga zid bo‘lib, qonunchilikni murakkablashtiradi. Shu sababli hozirda ishlab chiqilgan Suv kodeksi loyihasi amalda tasdiqlanib, qonuniy kuchga kiradigan bo‘lsa, bu kabi ziddiyatlarga barham beriladi, qonunchilik kodekslashtiriladi, bu esa uning ijrosi ta’milanishida, aholining huquqiy ongi va madaniyatining oshishiga katta hissa qo‘sadi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi suv munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etishi inson, jamiyat va davlatning bevosita suv resurslariga bog‘liq ekanligi, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashib, okeanga chiqish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan sanoqli davlatlardan biriligi hamda chuchuk suv tanqisligi muammosining ortib borayotgani bilan bog‘liqdir. Ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda jami iste’mol qilinadigan chuchuk suv miqdorining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishiga sarflanadi. Bu esa chuchuk suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishini talab qiladi. Qolaversa, mavjud huquqiy normalarning ijrosini ta’minalashda tegishli organlar o‘rtasida vakolatlar o‘xhashligi, sansalorlik, byurokratizm kabi salbiy holatlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, mamlakatimiz suv qonunchiligini takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida aynan chuchuk suv tanqisligi muammosini hal qilish, chuchuk suvdan oqilona foydalanish sohasida aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish va ta’mirlash ishlariga xalqaro moliyaviy tashkilotlar va investorlarning mablag‘larini jalb etish, aholini chuchuk suv bilan taminlash qamrovini oshirish, aholi sonining oshib borishiga mutanosib ravishda chuchuk suv umumiyliz zaxira miqdorlarini ko‘paytirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilishi, iqlim o‘zgarishi muammolarining salbiy oqibatlarini kamaytirishga katta e’tibor qaratilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Yesimqan Qanaatov. Orol inqirozi qanday oqibatlarga olib keldi?
<https://ekolog.uz/889/>

2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-12328>
5. O'zbekiston Respublikasining "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6126864>
6. Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiya.
7. Suvli botqoq yerlar to'g'risidagi Konvensiya.
8. H. Hayitov. O'zbekiston Respublikasida suv qonunchiligining rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari. 2024.